

SO'Z

Mumtozbeginim Turg'unova

Xoreografiya jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar, **Abduhamidov Akmal***

O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi

Anatatsiya:

Kalit so'zlar:

So'z — tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim strukturma'noviy birligi; o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, borlikdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. So'z ran uchun qurilish material bo'lib xizmat qiladi, lekin, undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. O'zida leksik va grammatik ma'noni birlashtirgan hodda so'z muayyan so'z turkumiga mansub bo'ladi, o'z tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo'lgan barcha grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Tilshunoslikda „so'z“ atamasi leksemaga nisbatan ham qo'llanadi va leksik so'z deb yuritiladi. Masalan, „so'z yasalishi“, „yasama so'z“ birikmalarida „so'z“ xuddi shu ma'noda qo'llanadi. Leksemaning nutqda muayyan shaklda voqelangan holati tilshunoslikda so'z shakl, leksema shakl yokimorfologik so'z deb ham yuritiladi. So'zning tovush va ma'no tomoni bor. Lekin har qanday tovush yig'indisi so'z bo'lavermaydi. Tovush yoki tovush birikmasi so'z bo'lishi uchun ma'noga ega bo'lishi, ya'ni muayyan til egalari shu tovushlar vositasida biror narsani anglashi yoki birbiriga anglatishi kerak. So'z ma'nosida umumiylik va yakkalikning, barqarorlik va o'zgaruvchanlikning dialektik o'zaro munosabati aks etadi. Ma'noning barqarorligi o'zaro tushunishni qulaylashtirsa, uning o'zgaruvchanligi (so'zning aniq, bir ma'nosidagi o'zgarishlar) so'zdan borlikdagi yangi tushuncha va narsalarni nomlashda foydalanishga imkon beradi, badiiy so'z san'atining muhim omillaridan hisoblanadi. So'zning ko'p ma'noliligi ham aynan ma'noning o'zgaruvchanligi bilan bog'liq. So'zlovchining nomlanayotgan narsaga munosabati so'z ma'nosining so'zlovchi histuyg'usini, shaxsiy fikrini ifodalovchi emotsional jihatini tashkil etadi. So'z tilda muayyan tizimni shakllantiradiki, bu tizim so'zning grammatik belgilariga (so'z turkumlari), so'z Yasalishi aloqalariga va semantik munosabatlariga (sinonimlar, omonimlar, antonimlar) asoslanadi.




Bulardan tashqari, lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, lekin o'z tovush qobig'iga, o'ziga xos ma'no, vazifasiga ega bo'lgan, shu bilan birga so'z yasash yoki so'z shaklini hosil qilish uchun foydalaniladigan morfemalardan farqlanuvchi til birliklari ham „so'z“ deb yuritiladi. Bular yordamchi so'zlar (bilan, lekin, kabi, xuddi), undovlar (obbo, ehhe, voy), taqlid so'zlar (miyov, dukurdukur, yaltyult) va modal so'zlar (shubhasiz, demak, ehtimol)dir. Bugungi axborot asrida eng chekka qishloq yoxud ovuldagi kichik bir hodisa ham yashin tezligida butun mamlakatga, hatto butun dunyo axborot olamiga tarqalishi odatiy holga aylandi. Yaxshidir-yomondir har qanday axborot bir zumda keng tarqalib, shov-shuvga aylanishi mumkin, kimgadir ziyon, kimgadir foyda, yana kimlargadir katta ruhiy zarba berish kuchiga ega. Ana shunday qudratli axborot olami bugungi shiddatli davrda o'zining ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarini namoyon etmoqda. Ijobiy tomonlarini yaxshi bilamiz: odamlarga ma'rifat ulashadi, yon-atrofdagi bo'layotgan voqea-hodisalardan insonlarning xabardorligini ta'minlaydi, ma'naviyatni, dunyoqarashni boyitadi. Ammo axborotlashuv jarayonlarining tahdidli jihatlarini ham unutmaslik lozimki, bu axborot xurujini, informatsion urushni avj oldirishga, jamoatchilikni to'g'ri yo'ldan chalg'itishga, pashshadan fil yasab, qaytarib bo'lmas holatlarni yuzaga keltirishga xizmat qilishi ham mumkin. Ana shunday tahlikali bir davrda jurnalist xalqi oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olishi va axborot iste'molchilariga eng to'g'ri, eng xolis axborotlarni adolatli tarzda yetkaza bilishi lozim. Buning uchun axborot olamining har bir vakilidan katta mas'uliyat, bilim va tajriba, mustaqil fikr va boy dunyoqarash talab etiladi. Hur fikr va uni erkin ifodalash imkoniyati, erkin matbuot, umuman, erkin ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari hamda jurnalistlarga davlat va jamiyat o'rtasidagi eng muhim ko'prik sifatida qarab kelinadi. Ana shu ko'prikning mustahkamligi ikkala tizimning rivojlanishiga, birdek taraqqiy etishiga zamin bo'ladi. Shu bois ham mamlakatimizda so'nggi yillarda so'z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning natijasida jamiyatning bir burchagida yashirib kelingan muammoni fosh etish hadigi ortga chekindi. Odamlarni qiynayotgan turli masalalar, ijtimoiy muammolar ro'y-rost ochiqlana boshlandi. Natijada mavjud muammo va kamchiliklar mutasaddi rahbarlarning muntazam e'tiborida bo'ladigan bo'ldi, mavjud muammolardan ommaviy axborot vositalari vakillari xabar topmasidan uni hal etish, odamlarni rozi qilish tadorigi ko'ri-la boshlandi. Mansabdorlar OAV vakillari bilan qo'pol aytganda, hisoblashadigan, faoliyatini boricha soha vakillariga ochiq-oshkora taqdim etadigan bo'ldi. Ya'ni, jamiyatda ochiqlik, shaffoflik, erkin so'z aytish muhiti shakllandi. Ochiqlanishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot jurnalistlardan yashirilmayapti,



tashkilotlar eshigi soha vakillari uchun hamisha ochiq. Davlatimiz rahbari bugun, 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tabrik yo‘llagani sohamizning har bir vakiliga cheksiz quvonch va g‘urur bag‘ishladi. Qolaversa, “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Prezident farmoni bilan bir guruh matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari turli orden va medallar bilan mukofotlangani sohamizga qaratilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikdan darakdir. Prezidentimiz tabrigida bugungi davrda jurnalistlarning faoliyati va jamiyatdagi o‘rni har qachongidan muhim ekanligiga alohida e‘tibor qaratildi. “Axborot makonidagi ustunlik ko‘p narsani hal etadigan bugungi murakkab vaziyatda xalqimiz siz, azizlarni demokratik matbuotning asosiy sharti va talabi bo‘lgan xolislik, haqqoniylik, milliy manfaatlarimizga sodiqlik kabi prinsiplarga amal qilib, o‘z bilim va salohiyati, o‘tkir qalami va haroratli so‘zi bilan jamoatchilikka ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglab yetishga ko‘maklashadigan, ularni buzg‘unchi axborot xurujlaridan himoya qiladigan fidoyi insonlar deb biladi”, deyiladi tabrikda. Darhaqiqat, hozirgi o‘ta tahlikali va turli axborotlar oqimi avj olayotgan davr matbuot va ommaviy axborot vositalari vakillaridan yanada hushyorlikni, xolislikni, ishonchli axborotlarni ulashishni talab etadi. Yurtimizda inson qadrini ulug‘lash, demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan izchil islohotlar dadillik bilan amalga oshirilgan ekan, bu jarayonda jurnalistlar har qachongidanda muhim o‘ringa ega. Mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligi, axborot olish va uni tarqatish huquqi ta‘minlanayotgan bir paytda bu erkinlikni to‘g‘ri his qilish va samarali foydalanish faqat taraqqiyotga, tinchlik-osoyshtalikka, xalqimiz xotirjamligiga xizmat qiladi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlashga konstitutsiyaviy darajada e‘tibor qaratilgani quvonarlidir. Ya‘ni, avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 67-moddasi OAVning erkinligi, senzura yo‘l qo‘yilmasligi kabi qisqaroq normalarni izohlar edi, xolos. Endilikda yangi Qomusimizda “Ommaviy axborot vositalari” deb nomlangan alohida bob o‘z aksini topdi. Undagi moddalarda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlashi mustahkamlandi. Ushbu normalar axborot olami vakillarini yanada qo‘llab-quvvatlaydi, ular uchun erkinlikni ta‘minlaydi, soha rivojiga, axborotlar sifati oshishiga, mamlakatimizda so‘z va axborot erkinligi yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik muhiti mustahkamlanishiga xizmat qiladi. So‘z aytish va yozish mas‘uliyati har bir kasbdoshimizni o‘rni kelsa, kunu tun bedor qiladi,





izlanishga, yelib-yugurishga, hatto boshqa bir qiyofaga kirib, o'sha qiyofaning holatini his qilgan holda yozishga, so'zlashga undaydi. Milliy media-makonimizni milliy an'analarimiz va zamon talablari uyg'unligida rivojlantirish, jamiyatda o'z yechimini kutayotgan muammolarni hal etish, taraqqiyotga tushov bo'ladigan turli illatlarga qarshi kurashishda uyg'oqlik, tinib-tinchimaslik va daxldorlik hissi har bir jurnalist faoliyatining ajralmas qismi bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziyo.uz
2. www.uzwikipediya.uz
3. www.uzbekensiklopediyasi.uz

